

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MATCHANOV RUSLANBEK AZATOVICH

**IIV AKADEMIYASI KURSANTLARIDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI
JANGOVOR SAMBO MAXSUS MASHQLARI YORDAMIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD) po pedagogicheskim
naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Matchanov Ruslanbek Azatovich

IV akademiyasi kursantlarida tezkor-kuch sifatlarini jangovor sambo maxsus mashqlari yordamida takomillashtirish.....3

Matchanov Ruslan Azatovich

Повышение скоростно-силовых качеств курсантов Академии МВД с помощью специальных упражнений боевого самбо.....27

Matchanov Ruslanbek Azatovich

Improving the qualities of quick strength in the cadets of the Academy of the Ministry of Internal Affairs with the help of special exercises of martial sambo wrestling.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannykh rabot

List of published works.....55

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MATCHANOV RUSLANBEK AZATOVICH

**IIV AKADEMIYASI KURSANTLARIDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI
JANGOVOR SAMBO MAXSUS MASHQLARI YORDAMIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped5307 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Umarov Djamshid Xasanovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy taqrizchilar: **Dadaboyev Odiljon Jaloliddinovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Nurimov Zafar Raxmonberdiyevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz. e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “B” binosi, 2-qavat ilmiy kengash zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(20__ yil “__” _____dagi __- raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M. Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh. Gaziye
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi
p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

J.M. Ishtayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning ayrim mamlakatlarida yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat, global xavf-xatarlar, ayniqsa xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi kabi taxdidlar ichki ishlar organlari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday muammolar, ichki ishlar organlari xodimlari oldiga, o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni mukammal bajarishlari, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qila olishlari, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini qonun ustuvorligi asosida ta‘minlash borasida nafaqat kasbiy, balki jangovor va jismoniy jihatdan ham yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lishlari yuzasidan yuqori talablarni qo‘ymoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatlari davomida turli ekstremal holatlarga duch kelgan vaziyatda davlat va jamiyat xavfsizligini ta‘minlashi bilan birga, o‘z xavfsizligini ham ta‘minlashni bilishi uchun zarur maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Ko‘pchilik mamlakatlarda ushbu muammoni hal qilish maqsadida ichki ishlar ta‘lim muassasalari kursantlarini jismoniy va jangovor tayyorgarliklarini takomillashtirish maqsadida sambo kurashining maxsus mashqlaridan foydalanilmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ichki ishlar xodimlarini jismoniy, jangovor va funksional tayyorgarliklari ko‘rsatkichlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kursantlar tayyorlash sohasida to‘plangan ko‘p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida ichki ishlar xodimlari uchun an‘anaviy va noan‘anaviy jismoniy va jangovor tayyorgarlik mashg‘ulotlari bilan birgalikda, ularga asoslangan kursantlarning chidamkorlik sifatini oshirishga yo‘naltirilgan majmuaviy usullar ham amaliyotda qo‘llanilmoqda, ularning salomatligini mustahkamlash, ular orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy va ilmiy uslubiy adabiyotlarda tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlari uchun o‘quv-trenirovka rejasiga muvofiq vosita va usullarni ishlab chiqilganligi, harakat faolligini oshirish, funksional zahira imkoniyatlarini yaxshilash masalalari keng yoritilganligiga qaramasdan ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida kursantlarni majmuaviy nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan.

Respublikamizda insonparvarlik tamoyil asosida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha davlat strategiyasini muhim jihatlaridan biri, davlatimiz va jamiyatimizning mustahkam tayanchi bo‘lib xizmat qilayotgan ichki ishlar tizimi xodimlarini jahondagi zamonaviy an‘analarni hisobga olgan holda jismoniy, jangovor va funksional tayyorgarliklarini oshirish jarayonini ilmiy va ilmiy-uslubiy ta‘minlash hisoblanadi. Mamlakatimiz inson qadri uchun degan ezgu tamoyil asosida olib borilayotgan islohotlarimizni hayotga muvaffaqiyatli joriy etishda ichki ishlar tizimi xodimlari davlatimiz va jamiyatimizning mustahkam tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda. “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas‘uliyatini yanada oshirish”¹ maqsadida Ichki ishlar Akademiyasi kursantlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoni

tezkor-kuch sifatlarini jangovor sambo kurashining maxsus mashqlari yordamida takomillashtirishga alohida etibor qaratilmoqda, kursantlarning malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy tayyorgarlik dasturlari va usullarini amalyotga joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni, 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son, 2024-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ichki ishlar Akademiyasi kursantlarining jangovor tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo'yicha A.A.Atashayxev, A.Sh.Usmonov, A.M.Sarimsokov, U.R.Rajapov, Z.Nurimov, A.S.Qurbonov, A.Qo'chqarov, L.Y.Hamrayev, F.Po'latovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.²

Xorijiy mamlakatlarning yetuk olimlari V.P.Volkov, A.A.Xarlampiev, A.A.Akopov, K.M.Vashurin, A.G.Jukov, O.A.Shmelev, V.A.Tixonov, V.N.Velyamkin, V.V.Volostnix, N.N.Oznobishina, A.V.Ishkovlar³ tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini kursantlarining jangovor jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishdagi ahamiyati katta bo'lishiga qaramasdan, ularda zamonaviy tayyorgarlik dasturlari va usullarini amalyotga joriy etish orqali kursantlarni jangovor-jismoniy tayyogarligini rivojlantirish masalalari yetarlicha ochib berilmagan.

Shu bilan birga, ichki ishlar ta'lim muassasalari kursantlarining jismoniy va

² Atashayxev A.A. Jangovor-jismoniy tayyorgarlik. Darslik 2016.-350 b.

³ Волков В.П. - Курс самозащиты без оружия "Самбо" (Учебное пособие для школ НКВД)1940 г. 66 с. Харлампиев А.А. - Самозащита без оружия (САМБО) Учебное пособие для работников милиции /Харлампиев Анатолий Аркадьевич/ М.: ГЛАВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ МИЛИЦИИ МВД СССР, 1958 г., 184 с.Акопов А.А., Вашурин К.М. - Боевые приемы Самбо. (Учебно методическое пособие для специальных средних учебных заведений МВД СССР. Для служебного пользования)1970.- 72с. Жуков А.Г., Шмелев О.А., Тихонов В.А. - Боевое Самбо для всех. / Жуков А.Г., Шмелев О.А., Тихонов В.А./ 1992. 212 с. Вельямкин В.Н. - Боевое самбо и рукопашный бой для спецвойск. Физкультура и спорт. 1993.- 74 с. Волостных В.В., Жуков А.Г., Тихонов В.А., - Энциклопедия Боевого Самбо (в двух томах) Олимпийская литература, 1993 г. 294 с. Ознобишина Н. Н. - Искусство рукопашного боя. /Нил Ознобишин/ (Книга «Искусство рукопашного боя» издавалась в России единственный раз — в 1930 г.) 1998 г. 184 с. Волостных В.В. Ишков А.В., Боевое Самбо (Основные аспекты подготовки универсала-единоборца в условиях вуза Учебное пособие по курсу «Физическое воспитание» для студентов всех специальностей) 2002 г. 68 с.

jangovor tayyorgarlik darajalarini oshirishda ularning mashg'ulot jarayonini ratsional tuzish vazifalarini hal qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Tahlil qilingan maxsus adabiyotlarda o'quv-trenirovka dasturlarini rejalashtirish va tuzishni optimallashtirish, yillik mashg'ulot siklida turli yo'nalishdagi maxsus maqsadli o'quv yuklamalarini jismoniy va jangovor mahoratini takomillashtirish bosqichida taqsimlash masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar mavjud emas. Ichki ishlar ta'lim muassasalari kursantlarining jismoniy va jangovor tayyorgarlik darajalarini oshirishga, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy tayyorgarlik dasturlari va usullarini o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etish orqali ularni saralash hamda tezkor-kuch sifatlarini takomillashtirishga yangicha ilmiy-nazariy yondashish masalalarini tadqiq qilish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2020–2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Jangovor sambo kurash turi bo'yicha mashg'ulot jarayonlarini maxsus jismoniy sifatlar yordamida takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bilim yurti kursatlarni tayyorlash tizimida pedagogik nazoratni tashkil qilish samaradorligini tajribada tekshirish va nazariy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kursantlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini shakllantirishda umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hisobiga kursantlarning jismoniy sifatlarini takomillashtirish.

kursantlarning o'quv-mashg'ulotlardagi harakatlarini takomillashtirishda mashg'ulot jarayonidagi jangovor sambo texnik harakatlarni o'rgatish hisobiga texnik usullaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

kursantlarning jangovor tayyorgarligini takomillashtirishga moslashtirilgan jangovor sambo mashqlari yordamida kursantlarni jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlarini oshirish.

kursantlarni o'quv-mashg'ulotlar jarayonlaridagi ishchi harakat faoliyatlarini rivojlantirish asosida jangovor tayyorgarliklarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursantlarning jangovor va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'quv-mashg'ulotlar jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursantlarning jangovor va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'quv-mashg'ulotlaridagi sambo kurashi texnik harakatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kursantlarning jangovor-jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini shakllantirishda umumiy va maxsus mashqlardan tuzilgan harakatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnik harakatlarga yaqinlashtiruvchi maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish hisobiga kursantlarning kuch-

chidamkorlik sifatleri jangovor sambo sport turi bo'yicha mashqlar takomillashtirilgan;

kursantlarning o'quv-mashg'ulot jarayonlaridagi harakatlarini takomillashtirishda mashg'ulotlardagi jangovar sambo texnik harakatlarni o'rgatishda tabaqalashtirilgan majmualardan tarkib topgan dasturni optimallashtirish texnologiyasini ishlab chiqish hisobiga jangovor sambo texnik harakatlaridan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash usullari kengaytirilgan;

kursantlarning o'quv-mashg'ulotlar jarayonlaridagi ish-harakat faoliyatlarini shakllantirishda, jangovor sambo maxsus texnik harakatlarini bajarishdagi samaradorlik darajasini oshirishda saralangan yordamchi maxsus mashqlar bilan tizimlashtirilgan dasturni o'quv-mashg'ulotlarga joriy qilish hisobiga kursantlarni jangovor tayyorgarliklaridagi bellashuvlarda sambo texnik harakatlar takomillashtirilgan;

kursantlarning jangovor tayyorgarligini takomillashtirishga moslashtirilgan jangovor sambo mashqlari meyorlangan texnik harakatlarni tizimlashtirish yordamida tashkillashtirilgan o'quv-mashg'ulotlarni olib borish hisobiga kursantlarni jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlari oshirishga qaratilgan mashqlar imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kursantlarning mashg'ulot jarayonlarida qo'llaniladigan samboga doir bo'lgan texnik usullar, ularning vazni, tana o'lchamlari va jismoniy sifatleri darajalarini inobatga olgan holda ularning o'rganilgan;

mashg'ulot jarayonida tajriba guruhi sinaluvchilarining har biri uchun antropometrik ko'rsatkichlari va shu qatorda malakalari har xil bo'lgan raqiblar bilan mashg'ulot yuklama hajmini doimiy ravishda oshirish orqali, ularning jangovor va jismoniy tayyorgarlik darajalari oshirib borilgan;

jangovor sambo mashg'ulotlari bilan shug'ullanadigan kursantlarning o'quv-mashg'ulotlarida qo'llaniladigan texnik harakatlarni bajarishdagi maxsus jismoniy sifatleri rivojlanganlik darajalarini inobatga olgan holda o'rganilgan;

jangovor sambo sport turi mashg'ulot jarayonlarida texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan yuklama hajmini doimiy ravishda oshirish orqali, ularning jangovor va jismoniy tayyorgarlik darajalari oshirib borilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursantlarini jangovor va jismoniy tayyorgarligi uslubiyatini jismoniy tarbiya mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi xorijiy hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, olingan ma'lumotlarga zamonaviy kompyuter texnikasining ma'lum dasturlaridan foydalanib ishlov berilganligi, tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi; tajriba va nazorat guruhidan olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kursantlar jangovor va jismoniy mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan hamda jangovor sambo texnik harakatlarini o'rganish va shu texnik usullar asosida ishlab chiqilgan dasturni kursantlarning mashg'ulot jarayoniga tatbiq yetish asosida kursantlarni jangovor va jismoniy tayyorgalik darajalarini oshirib borishning ilmiy mohiyati ochib berilgan. Olingan ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursantlarini jangovor va jismoniy tayyorgarligi jarayonida o'zlashtiradigan nazariy bilimlarini boyitish va kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kursantlar tomonidan qo'llaniladigan jangovor sambo texnik usullar qo'llaniladigan texnik harakatlar asosida kursantlarning individual xususiyatlari takomillashtirdi va shu qatorda jangovor samboning ko'p qo'llaniladigan asosiy texnik-taktik harakatlarni o'rgatish va maxsus mashqlar texnologiyasini ishlab chiqish va me'yorlash hamda tavsiyalarni mashg'ulot jarayoniga joriy yetishga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursantlarining tezkor-kuch sifatlarini jangovor sambo maxsus mashqlari yordamida takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda olingan natijalar asosida:

kursantlarning jangovor-jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini shakllantirishda umumiy va maxsus mashqlardan tuzilgan harakatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnik harakatlarga yaqinlashtiruvchi maxsus mashqlar majmuasidan foydalanishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining o'quv-mashg'ulot jarayoni faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 21-sentyabrdagi 03-01/04/20/9794-son ma'lumotnomasi). Natijada Sambo sport turining texnik usullarini bajarish aniqliligi 9%ga va taktik hujum harakatlari 4%ga oshgan;

kursantlarning o'quv-mashg'ulot jarayonlaridagi harakatlarini takomillashtirishda mashg'ulotlardagi jangovar sambo texnik harakatlarni o'rgatishda tabaqalashtirilgan majmualardan tarkib topgan dasturni optimallashtirish texnologiyasi Toshkent shahar IIB xodimlarining jangovar tayyorgarlikni oshirish mashg'ulot jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent shahar IIBning 2023-yil 31-maydagi 27/6-1206-son dalolatnomasi). Natijada Sambo sport turining texnik usullarini bajarish aniqliligi 12%ga va taktik hujum harakatlari 6%ga o'sgan;

kursantlarning o'quv-mashg'ulotlar jarayonlaridagi ish-harakat faoliyatlarini shakllantirishda, jangovor sambo maxsus texnik harakatlarini bajarishdagi samaradorlik darajasini oshirishda saralangan yordamchi maxsus mashqlar bilan tizimlashtirilgan dastur O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining o'quv-mashg'ulot jarayoni faoliyatiga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 21-sentyabrdagi 03-01/04/20/9794-son ma'lumotnomasi). Natijada Sambo sport turining texnik usullarini bajarish aniqliligi 9%ga va taktik hujum harakatlari 4%ga takomillashtirilgan;

kursantlarning jangovor tayyorgarligini takomillashtirishga moslashtirilgan jangovor sambo mashqlari meyorlangan texnik harakatlarni tizimlashtirish yordamida tashkillashtirilgan o'quv-mashg'ulotlarni olib borish hisobiga kursantlarni jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlari oshirishga qaratilgan mashqlar Toshkent shahar IIBB xodimlarining jangovor tayyorgarlikni oshirish mashg'ulot jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent shahar IIBBning 2023-yil 31-maydagi 27/6-1206-son dalolatnomasi). Natijada Sambo sport turining texnik usullarini bajarish aniqliligi 12%ga va taktik hujum harakatlari 6%ga o'sgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop yetishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, 104 betda ifoda etilgan. Dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar 15 ta jadval va 14 ta rasmda illustrasiya qilingan, tatbiq etilganligi to'g'risidagi dalolatnoma ilovada keltirilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning o'rganilganlik holati, dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy yetilishi, aprotatsiyasi va ularni ye'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha adabiyotlar manbalarida yoritilgan muammolar”** deb nomlangan birinchi bobida kursantlarni jismoniy tayyorgarligi bo'yicha O'zbekistonlik yetakchi mutaxassislar tomonidan sportchilarni o'quv-mashq jarayonining asosiy tomonlarini amalga oshirishdagi samaradorlik, ularning mashg'ulotlarini tayyorgarlik vositalarini maqsadga muvofiq tarzda mos qo'llanishiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Lekin, kursantlarni tayyorlashda bunday mos tushishning alohida jabhalari bo'yicha beriladigan aniq amaliy tavsiyalar, ko'pincha, har xil sport turlari uchun ziddiyatli xususiyatga ega bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'quv-mashq jarayonining mazmuni va tuzilmasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadigan malaka toifasi muhim bo'lib, uning o'ziga xosligi, kursantlarni tayyorlashning nisbatan o'xshash vositalari va uslublarini qo'llash imkoniyatini inkor yetmaydi.

Bunday jarayon amaliyotda doim bo‘lib turadi, ayniqsa, tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot jarayonlari takrorlanishi mumkin. Bu, kursantlarning mashg‘ulot jarayonlarida turli tayyorgarlikni optimallashtirishga yo‘naltirilgan vositalarni, uslublarni modellashtirilgan holda ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Bu borada, Ichki ishlar vazirligi sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan mamlakatimiz olimlari A.A.Atashayhov, A.Sh.Usmonov, A.M.Sarimsokov, U.R.Rajapov, Z.Nurimovlar, jangovor tayyorgarlik bo‘yicha A.S.Qurbonov, A.Qo‘chqarov, L.Ye.Hamraev, F.Po‘latov kabilar, yevropa olimlari jangovor-jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha V.P. Volkov, A.A. Xarlampiev, A.A. Akopov, K.M. Vashurin, A.G. Jukov, O.A. Shmelev, V.A. Tixonov, V.N. Velyamkin, V.V. Volostnix, N.N. Oznobishina, A.V. Ishkov va sport sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan R.S.Salomov (1998-2010), F.A.Kerimov (2004,2019), R.D.Xolmuhamedov (2000-2018), N.A.Tastanov (2015, 2017), Sh.S.Tursunov (2019) kabi mutaxassislar o‘z ma’lumotlarida sport kurashidagi “an’ana” atamasini prinsipial dinamik va o‘z-o‘zidan rivojlanib boradigan fenomen tarzida ifodalaganlar.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, mavjud tizimning asosiy nazariy qoidalarini alohida sport turlari bo‘yicha kursantlarning amaliyotida qo‘llanilmasligi, ularni tayyorlashdagi muammolar yechimini topishda muhim kamchiliklardan hisoblanadi. Bunday nomuvofiqlik kursantlar bilan ishlovchi murabbiylar mehnati samaradorligini sezilarli tarzda pasaytiradi va ularning jarohatlanishiga, mashq qilayotganlar tayyorgarligini, ularning xususiyatlarini yetarlicha hisobga olinmasligiga, sport bilan shug‘ullanishga qiziqishning pasayishiga olib kelishi va tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmaganligi aniqlandi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda kursantlarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirishga karatilgan tadqiqotlarga katta ye’tibor qaratilgan. Jumladan, kursantlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish, jangovor-jismoniy tayyorgarlik bosqichlari mashg‘ulotlarining hajmini kattaligi va yo‘nalish tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, mikrosikllarda mashg‘ulotlarni rasional almashtirib o‘tkazishga oid qoidalar va uslublar aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal yetish uchun, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, anketa-so‘rov, pedagogik tadqiqotni tashkil qilish, nazorat sinovlari, tadqiqotni amalga oshirish uchun pedagogik tajribalar, ma’lumotlarning statistik tahlili kabi pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi yoritilgan.

Dissertatsiyaning tadqiqotlari uch bosqichda o‘tkazildi.

1. Birinchi-analitik va metodik bosqich (2020-2021 yillar)-maxalliy va chet yel adabiyotlarida mazkur mavzu doirasidagi ilmiy muammolarning xolatini tushunish, mavzuning rivojlanish darajasini o‘rganish, ilmiy apparat va tadqiqot dasturlarini belgilash, ishchi farazni yaratish masalalariga bag‘ishlanadi.

2. Ikkinchi-loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichi (2021-2022 yillar) mashg‘ulot jarayoning texnologik modelini ishlab chiqish va amalda tadbiiq yetish, ta’lim mazmuning pedagogik modellashtirish uchun mezon va ko‘rsatkichlar

tizimini belgilash, tajriba ishlarini olib borish, bu jarayonda gipotizani takomillashtirish amalga oshirildi.

3. Uchinchi nazorat va tekshirish bosqichi (2022-2024 yillar) olingan tadqiqot natijalarining diagrammasi ishlab chiqilgan va tadqiqot natijalarining formulasini shakllantirish va ta'lim mazmunini pedagogik modellashtirish uchun ishlab chiqilgan mezon va tizim ko'rsatkichlariga mos ravishda baholandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik-statistika usullari yordamida hisoblab chiqildi va tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning "**Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi darajalarini rivojlanganligi**" deb nomlangan uchinchi bobida muallif tomonidan kursantlarning sport harakatlarini tasniflash asos qilib olingan. Tasniflashda lug'aviy usullarning tahlili guruhlarga ajratish orqali amalga oshirilgan. Ya'ni, harbiy xizmatchining jismoniy tayyorgarligining asosiy maqsadi ulardagi tezlik-kuch va yepchilik kabi asosiy jismoniy sifatlarni takomillashtirishdan iborat. Yepchilik yeng murakkab sifatlardan biri bo'lib, uning tarixida ayni bir paytda kuchning, tezlikning va chidamlilikning parametrlari mavjud. Ushbu xususiyat kursant bajarayotgan xatti-harakatning xarakteriga ko'ra namoyon bo'ladi, shuning uchun u, birinchi galda, harakatlarni texnik jihatdan to'g'ri bajarilishiga bog'liq bo'ladi, shu boisdan ham yepchilik haqida gap ketganda, avvalo kursantlarni jismoniy ko'rsatkich darajalari xususida gapirish lozim bo'ladi.

Kursantlarni chidamkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun kuch sifat darajalariga qaratilgan mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq yemasligini to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Lekin bu, ularga chidamkorlik umuman kerak yemas degan mazmuni bermaydi. Chidamlilik sifati kerak va muhim, hayot uchun zarur xususiyat. Chidamliligi yetarlicha rivojlangan kursant har qanday ishni puxta va sifatli bajara oladi va unda toliqish hissi, chidamliligi yaxshi rivojlanmagan kursantga nisbatan ancha kech paydo bo'ladi.

Kursantlarning o'quv-trenirovka mashg'ulotlaridagi chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklamalar, sportchilarda bu sifatni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklamalardan farq qilishi, shuningdek uni tarbiyalash usullari ham boshqacha bo'lishi zarur. Sekin yugurish mashqini yertalabki mashg'ulotlar vaqtida (mashg'ulot oxirida) yoki uning boshqa vaqtida qo'llash mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kursantlarni olti oy davomida umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilgan xaftalik dastur

| T/r | Hafta kunlari | Hafta davomida olib boriladigan mashg'ulot mavzulari va ularni bajarilishi | | Mashg'ulot o'tiladigan kun qismi | Mashg'ulot vaqti (soat) |
|-----|---------------|---|--------------|----------------------------------|-------------------------|
| 1. | Dushanba | Kursantlarning tezkorlik sifati ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi | sherik bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |
| 2. | Seshanba | Jamoaviy regbi sport turi bilan shug'ullanish | jamo bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |

1-jadval davomi

| | | | | | |
|----|------------|---|--------------|--------------------------|---------|
| 3. | Chorshanba | Kursantlarning kuch sifati ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi | sherik bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |
| 4. | Payshanba | Jamoaviy voleybol-basketbol sport turi bilan shug'ullanish | jamo bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |
| 5. | Juma | Kursantlarning chidamlilik sifati ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi | sherik bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |
| 6. | Shanba | Jamoaviy futbol sport turi bilan shug'ullanish | jamo bilan | 17:00 dan 18:30 gacha | 90 daq. |
| 7. | Yakshanba | Dam olish kuni tiklanish tadbirlari (sayr, musiqa tinglash, kinofilm tomosha qilish) | | | |

Izoh: UJT-umumiy jismoniy tayyorgarlik.

Mazkur kursantlarda chidamkorlik sifatini rivojlantirish tartibidan, kursantlarni jismoniy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarining farqi katta bo'lib, kursantlarning chidamkorlik sifati har bir jarayonda rivojlantiriladi. Mustaqil yugurish bilan, yaxshisi, jismoniy tarbiya darslari yo'q kuni shug'ullangan ma'qul. Yuqorida aytib o'tilganday, jismoniy mashqlar va yugurish bilan mustaqil shug'ullanganda vrach nazorati va o'z sog'lig'i holati ustidan nazorat qilib borish zarur. Bunda kursant shuni bilib qo'yishlari kerak, to'g'ri tashkil qilingan yugurish maqshlari ta'sirida yurak qisqarishlari chastotasini tinch holatda va yugurish boshlangan zahoti asta-sekin siyraklashuvi kuzatiladi. Yugurish bilan doimiy shug'ullanish kursantlarning sinov standartlariga mosligini va yaxshi natijalarni qo'llab turishiga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

2-jadval

Kursantlarning tezkor-kuch sifati darajalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan jangovor sambo sport turining maxsus mashqlari asosida tizimlashtirilgan o'quv-mashg'ulot dasturi

| Tayyorgarlik bosqishlarida bajariladigan mashqlar nomi | Mashqlar nisbati (%) | Mashqlar shiddati | Tashkiliy-uslubiy ko'rsatmalar |
|---|----------------------|-------------------|---|
| I. Oldi tomondan xujum harakatidan himoyalanih: - qo'llar bilan qilingan xujum harakatlari (zarbalar va bo'g'ish)ni bartaraf yetish; (qo'llar bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 100 20 | - O'rta | Mashg'ulotlar jarayonida (mashqlarni 6-8 tagacha har hafta pozitsiyasini almashtirib bajarish lozim) (<i>trenirovkaning tayyorgarlik qismida</i>) |
| - oyoq bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (oyoqlar bilan qilingan xujumni oldini to'sish, | 20 | O'rta | |

2-jadval davomi

| | | | |
|---|-----|-------|---|
| boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 20 | O‘rta | |
| - sovuq qurol bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (sovuq qurol bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O‘rta | |
| - rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O‘rta | |
| - qattiq buyumlar bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (qattiq buyumlar bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O‘rta | |
| Jami | 100 | | |
| II. Orqa tomondan xujum harakatidan himoyalanih: | 100 | - | Mashg‘ulotlar jarayonida (mashqlarni 6-8 tagacha har hafta pozitsiyasini almashtirib bajarish lozim) (<i>trenirovkaning tayyorgarlik qismida</i>) |
| - qo‘llar bilan qilingan xujum harakatlari (zarbalar va bo‘g‘ish)ni bartaraf yetish; (qo‘llar bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 20 | O‘rta | |
| - oyoq bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (oyoqlar bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 20 | O‘rta | |
| - sovuq qurol bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (sovuq qurol bilan qilingan xujumni oldini | 20 | O‘rta | |

2-jadval davomi

| | | | |
|--|-----|-------|-------------------------------------|
| to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O'rta | |
| - rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O'rta | |
| - qattiq buyumlar bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (qattiq buyumlar bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | | | |
| Jami | 100 | | |
| III. Yon tomonlardan xujum harakatidan himoyalanih: | 100 | - | Trenirovkaning tayyorgarlik qismida |
| - qo'llar bilan qilingan xujum harakatlari (zarbalar va bo'g'ish)ni bartaraf yetish; (qo'llar bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 20 | O'rta | |
| - oyoq bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (oyoqlar bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish) | 20 | O'rta | |
| - sovuq qurol bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (sovuq qurol bilan qilingan xujumni oldini to'sish, boshqa tomonga yo'naltirish, qayirib o'ziga qarshi yo'naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O'rta | |
| - rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; | 20 | O'rta | |

2-jadval davomi

| | | | |
|---|-----|-------|--|
| (rezina tayoq (PR-73) bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) - qattiq buyumlar bilan qilingan xujum harakatlarini bartaraf yetish; (qattiq buyumlar bilan qilingan xujumni oldini to‘shish, boshqa tomonga yo‘naltirish, qayirib o‘ziga qarshi yo‘naltirish, ushlab qolish va beldan yoki yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish, qurolsizlantirish) | 20 | O‘rta | |
| Jami | 100 | | |

3-jadval

Jangovor sambo kurashining texnik usullari asosida kursantlarning tezkor-kuch sifatini takomillashtirish dasturi

| Jangovor sambo bo‘yisha himoyalani uchun texnik usullar nomi | Mashqlar nisbati (%) | Mashqlar shiddati | | | Tashkiliy uslubiy ko‘rsatmalar |
|---|----------------------|-------------------|----------|----------|--|
| | | 1-daraja | 2-daraja | 3-daraja | |
| I. Tik turgan holatdagi xujum harakatiga qarshi raqibni zararsizlantirish usullari: - qo‘lini tortib yerga qorin qismi bilan tushurish; - qo‘l ostidan sho‘ng‘ib o‘tib yerga qorin qismi bilan tushurish; - qo‘lini bo‘yinga o‘rab yerga qorin qismi bilan tushurish. | 100 | | | | Tajribaning birinshi oyida o‘rgatiladigan texnik usul (<i>trenirovkaning asosiy qismida</i>) |
| | 25 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| | 25 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| | 25 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| Jami | 100 | | | | |
| II. Tik turgan holatdagi xujum harakatiga qarshi raqibni zararsizlantirib yiqitish: - zarb bilan yiqitish; - qayirib yiqitish. | 100 | | | | Tajribaning ikkinshi oyida o‘rgatiladigan texnik usul (<i>trenirovkaning asosiy qismida</i>) |
| | 50 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| | 50 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| Jami | 100 | | | | |
| III. Tik turgan holatdagi (sovuq qurol, qattiq buyumlar bilan) xujum harakatiga qarshi raqibni qurolsizlantirib oshirib tashlash: - yelkadan oshirib tashlash; - beldan oshirib tashlash; - yelkadan oshirib tashlash; | 100 | | | | Tajribaning ushinshi oyida o‘rgatiladigan texnik usul (<i>trenirovkaning asosiy qismida</i>) |
| | 33 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| | 33 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |
| | 33 | Kichik | O‘rta | Yuqori | |

1-bo'limni birinchi mashq turi bo'yicha turnikda tortilish uchun turnikda osilib turish mashqni 2 daqiqadan, 3 seriya, 3 marotaba takrorlansa, shu qatorda baland turnikda yuk bilan tortilish 10-15 soniyadan, 3-4 seriya, 3-4 marotaba takrorlanishlar bajarilgandan so'ng, past turnikda oyoqlarni oldinga uzatib, chalqancha yotgan holatda tortilish 20-40 soniya oralig'ida, 3-4 seriyadan iborat bo'lgan 3-4 marta takrorlanishlarni bajarish tartibiga qat'iy rioya qilish zarur.

Mazkur mashqlar tartibi 6 oydan keyin, turnikda tortilish davomiyligini 15-20 marotaba bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4-jadval

Kursantlarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar yuklamalarini tizimlashtirilgan texnologiyasi

| № | Mashqlar mazmuni | Har bir mashqlar-ni bajarishga ketadigan o'rtacha vaqt | Takrorlashlar soni | Shiddat zonasi | Yurak qisqarish soni (daqiqada) | Dam olish vaqti | |
|--|---|--|------------------------------|--------------------------|---------------------------------|-----------------|---|
| I-bo'lim kuch sifatini rivojlantirish mashqlar majmuasi | | | | | | | |
| 1 | Turnikda tortilish | Turnikda osilish | 1-2 daqiqa va undan ortiq | 3 seriyada, 3 marta. | 1-2 | 110-120 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 25-30 soniya. |
| | | Baland turnikda yuk bilan tortilish | 10-15 soniya va undan ortiq | 3-4 seriyada, 3-4 marta. | 1-2 | 110-120 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 1.5-2.5 daq. |
| | | Past turnikda tortilish (oyoqlarni oldinga uzatib, chalqancha yotgan holatda) | 20-40 soniya va undan ortiq | 3-4 seriyada, 3-4 marta. | 2-5 | 120-140 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 1.5-2.5 daq. |
| 2 | Qo'llarga tayangan holda tirsaklarni bukib yozish | Polda qo'llar va tizzalarga tayangan holatda qo'llarni bukib yozish | 2 daqiqa atrofida | 2-3 seriyada, 3-4 marta. | 2-5 | 120-140 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 1.5-2.5 daq. |
| | | Gantellarga qo'llar bilan tayangan holatda gantellarni yuqoriga ko'tarish | 2 daqiqa atrofida | 2-3 seriyada, 3-4 marta. | 2-5 | 120-140 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 20-30 soniya. |
| | | Poldan 1 metr masofa balandlikda bo'lgan predmetda tayanib turgan holatda qo'llarni bukib yozish | 20-30 soniya. va undan ortiq | 2-3 seriyada, 3-4 marta. | 2-5 | 120-140 | Mashqlar orasida 1.0 daq, seriyalar orasida 20-30 soniya. |

1-bo'limni ikkinchi mashq turi bo'yicha Qo'llarga tayangan holda

tirsaklarni bukib yozish uchun polga qo'llar va tizzalarga tayangan xolda qo'llarni bukib yozish mashqni 2 daqiqadan, 2-3 seriya, 3-4 marotaba takrorlansa, shu qatorda gantellarga qo'llar bilan tayangan holatda gantellarni yuqoriga ko'tarish harakatini 2 daqiqadan, 2-3 seriya, 3-4 marotaba takrorlash bilan bajarandan so'ng, poldan 1 metr masofa balandlikda bo'lgan predmetda tayanib turgan holatda qo'llarni bukib yozish mashqini 20-30 soniya oralig'ida, 2-3 seriyadan 3-4 takrorlash bilan bajarish tartibiga qat'iy rioya etilsa, mazkur mashqlarni 6 oydan so'ng 80-100 marotaba bajarish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kuch – qarshilik turlarini yengib o'tish qobiliyatidir. Bu itarish, tortish yoki tashqi ob'ektni ko'tarish yoki buyumlar, ayniqsa tanani og'irlikdan bo'shliqqa tomon olib chiquvchilarni qamrab oladi. Ushbu uchta ustivorlikka yerishish uchun, odatda, egiluvchanlikka yo'naltirilgan kardiovaskulyar mashqlar majmuasi va harakatlar diapazoni hamda yuklar bilan mashqlar foydalaniladi.

Konkret jismoniy sifat to'g'risidagi tasavvurlar tarkibiga, ularning alohida yelementlaridagi farq darajasi va o'lchami kiradi. Bundan tashqari, uning tarkibiga sport bilan shug'ullanadigan shaxsning organizmi funksiyalarini o'zgarishini anglash ham kiritiladi, masalan: zo'riqish va mushaklarning bo'shashishi, nafas olish tezligi va chuqurligi hamda boshqa jihatlar.


Shu bilan birga, kursantning o'z jismoniy sifatlari to'g'risidagi tasavvurlari dinamik darajasi bilan xarakterlanishini ham ta'kidlash zarur. Biroq, bu ko'rsatkichlar doimiy tarzda barqaror bo'lmaydi. Zero, ular kursantning funksional imkoniyatlaridan, shuningdek mashq qilganligi darajasidan kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ularni shakllantirish uchun odamdan mushaklari harakatini hamda organik sezgilarini yuqori darajada faollashtirish talab yetiladi. Jismoniy sifatlarni idrok qilish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bunda, har bir jismoniy sifatning mohiyati, uni yuzaga kelichida hamda bajarilayotgan xatti-harakatlar sharoitida o'z ifodasini topadi.

